



Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi

POLIETILEN PAKETLAR ISHLAB CHIQARISH LOYIHASI



TOSHKENT – 2024-YIL



UO'K _____
KBK _____
Q _____

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi hamda nashr ettirildi.

Muallif

Rashidov F.I. - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y., Babamuhamedov A.A. – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari

Taqrizchi:

Rizaev N.K. - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrirchi:

Dilfuza Narxujayeva – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfasi hisoblanadi.**

ISBN _____

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB -2024
© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son, "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son, "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-son, "2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida" 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-yanvardagi 37-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkilot (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, 60411300-"Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301-"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura) hamda 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyihani menejmenti va marketingi, loyihani texnik jihatlar, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyihani rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmaydi, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan

tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvdagi nutqidan**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariysi	8
1. Loyiha maqsadi	10
1.1. Loyiha maqsadi	11
2. Loyiha tashabbuskori	12
2.1. Loyiha tashabbuskori	13
3. Loyiha strategiyasi	14
3.1. Loyiha strategiyasi	15
4. Mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish	16
4.1. Mahsulot haqida	17
4.2. Xom-ashyo haqida	19
4.3. Jihoz va uskunalari. Ishlab chiqarish jarayoni	24
4.4. Infrastruktura	32
5. Marketing konsepsiyasi	34

5.1. Marketing konsepsiyasi	35
6. Ishlab chiqarish rejasi	40
6.1. Ishlab chiqarish rejasi	41
7. HR rejasi	46
7.1. HR rejasi	47
8. Ta'minot rejasi	48
8.1. Ta'minot rejasi	49
9. Moliyaviy reja	50
9.1. Moliyaviy reja	51
9.2. Loyihani amalga oshirish uchun olinadigan kredit shartlari	52
9.3. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish mexanizmi va manbalari	53
10. Xulosalar	54
11. Biznes loyihaning hisob-kitob qismi	58



MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYSI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaninig farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potentsial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisobga olgan holda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.





1. LOYIHA MAQSADI



1. 1. LOYIHA MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi polietilen paketlar ishlab chiqarishni tashkil etishdir.

Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari yaratish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun, polietilen paketlar ishlab chiqarish uskunalari xarid qilish maqsadida, umumiy qiymati 750 mln so'm miqdorida investitsiya (bundan 500 mln so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan.

Jadval 1.1. (ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Polietilen paketlar ishlab chiqarish uskunalari to'plami	500 000	500 000	100%	-	0%
Jami asosiy vositalar	500 000	500 000	100%	-	0%
Aylanma kapital	212 500		0%	212 500	100%
Investitsion davrda kredit foizlari to'lovi	37 500		0%	37 500	100%
Jami	750 000	500 000	67%	250 000	33%

Loyiha tashabbuskoriga ushbu loyihani amalga oshirish eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi.



2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2.1. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyatiga polietilen paketlar ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbikorlik subyeksi hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va o'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki ishlab chiqarish sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.





3. LOYIHA STRATEGIYASI



3.1. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsiya muhiti yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda polietilen paketlar ishlab chiqarishni tashkil etishdan iborat.





4. MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL QILISH



4.1. MAHSULOT HAQIDA

Oddiy polietilen paketlari birinchi marta 1957 yilda AQShda ishlab chiqarilgan, sendvichlar, non, sabzavot va mevalarni qadoqlash uchun mo'ljallangan. 1966 yilga kelib, ushbu mamlakatda ishlab chiqarilgan non mahsulotlarining qariyb 30 foizi bunday paketlarga qadoqlangan. 1973 yilga kelib G'arbiy Yevropa mamlakatlarida polietilen paketlar ishlab chiqarish hajmi 11,6 million donani tashkil etdi. 1982 yilda eng yirik savdo markazlarida tutqichli polietilen paketlar ("mayka"deb nomlangan) sotuvga chiqarildi. Dunyoda har yili 5 trln.gacha polietilen paketlardan foydalaniladi.

Bir martalik polietilen paketlarning bugungi kunda global iste'moli yiliga 4 trillion paketni tashkil qiladi.

Ma'lumki, har yili 1 trln.dan ortiq tutqichli polietilen paketlar ishlab chiqariladi, ularni inson faoliyatining turli jabhalarida va sohalarida uchratish mumkin, ulardan maishiy texnikani qadoqlashdan tortib oziq-ovqat mahsulotlarini tashishgacha va yana turli maqsadlarda qo'llaniladi. 2014 yilda aholi jon boshiga 320 ga yaqin paket ishlatilgan.

Bir marta ishlatiladigan polietilen paketlar ularni qayta ishlashning to'g'ri tizimi yo'qligi sababli, hozirda tartibga soluvchilarning va keng jamoatchilikning e'tiborida bo'lsada, ular o'zlarining muqobillaridan ko'ra ekologik jihatdan yaxshiroqdir.

Bir martali ishlatiladigan polietilen paketni eng mashhur muqobili - qog'oz paket bilan taqqoslaganda, qog'oz paket ozon qatlamining yemirilishiga va ekotizimga o'rtacha polietilen paket ta'siridan kamroq ta'sir qilishi uchun uni 43 marta qayta ishlatish kerak. Shu bilan birga, uning bir qator xususiyatlari -




mustahkamligining pastligi va boshqalar tufayli qog'oz paketdan ko'p marta foydalanish deyarli mumkin emasligi aniq.

Bir marta ishlatiladigan polietilen paketlar qog'oz muqobilidan ekologik jihatdan yaxshiroqdir, chunki uni ishlab chiqarish uchun 4 baravar kamroq suv va energiya talab etiladi.

Qog'oz paketlarning ekologik tozaligi past bo'lishiga qaramay, ko'plab mamlakatlar plastik paketlardan muqobil variantlar foydasiga, shu jumladan qog'ozli paketlar foydasiga voz kechishni rag'batlantirmoqda. Misol uchun, Buyuk Britaniyada ba'zi yirik supermarketlar (Morrisons, Tesco, Sainsbury's) non mahsulotlari va quyma mahsulotlarni qadoqlash uchun bir martalik plastik paketlardan bir martalik qog'oz paketlarga o'tishmoqda, shu bilan birga ular uglerod izi ortishida o'z hissalarini qo'shishlarini tan olishmoqda.

Polietilen paketning qaysi turi ishlatilmasin, uning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishning kaliti uning maksimal miqdorda qayta ishlatilishidir. Polietilen paketni asl maqsadi bo'yicha



qayta ishlatish mumkin bo'lmaganda (masalan, oziq-ovqat mahsulotlarini tashish uchun), uni boshqa maqsadlarda ishlatish kerak, masalan, axlat qoplari sifatida.

4.2. XOM-ASHYO HAQIDA

Polietilen

Plastik paketlar polietilen (PE) deb nomlanuvchi polimer moddadan tayyorlanadi va uglerod va vodorod atomlarining uzun zanjirlaridan hosil bo'ladi. Ushbu zanjirlarning tuzilmalari chiqishida qaysi turdagi polietilenni olish kerakligiga qarab farq qilishi mumkin, ammo ularning deyarli barchasi har xil turdagi plastik qoplarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Masalan, HDPE yuqori zichlikdagi polietilen bo'lib, polietilen paketlar yaratish uchun ishlatiladigan polietilenning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Ushbu plastmassa molekulalarning to'g'ri zanjirlaridan yaratilgan bo'lib, ular juda kam cho'zilib ketadi (разветвляются). LDPE-bu past zichlikdagi polietilen, ya'ni polimer materiallarning tarmoqlangan zanjirlaridan yaratiladi. Bu juda yengil, plyonkali polietilen bo'lib, ko'pincha kimyoviy tozalashdagi kiyim-kechak mahsulotlarini qadoqlash uchun polietilen paketlarini tayyorlashda ishlatiladi. LDPE tuzilishi, past zichlikdagi chiziqli polietilen bilan taqqoslaganda, cho'zilib ketmaydi, lekin HDPE kabi darajadagi kuchga ega emas. Bu shuni anglatadiki, LDPE plastmassalaridan tayyorlangan polietilen paketlar kerakli quvvatni ta'minlash uchun qalinroq va og'irroq bo'lishi kerak. Kiyim do'konlarida ishlatiladigan polietilen paketlar ushbu moddadan tayyorlangan polietilen paketlarning keng tarqalgan namunasidir.



Polietilen o'zining mustahkamligi, namlikning deyarli nolga teng singdirilishi, mukammal kimyoviy inertligi, past ishqalanish koeffitsiyenti, ishlov berish qulayligi va boshqalar kabi ajoyib xususiyatlari tufayli dunyodagi eng ko'p qirrali va keng qo'llaniladigan termoplastiklardan biridir.

Polietilen paketlar ishlab chiqarish materiallari:

- Yuqori zichlikdagi polietilen (ПЭВП, - HDPE - High-density polyethylene)
- O'rta zichlikdagi polietilen (ПЭСП, - MDPE - Middle-density polyethylene)
- Past zichlikdagi polietilen (ПЭНП, — LDPE — Low-density polyethylene)
- Chiziqli past zichlikdagi polietilen (LLDPE-Linear low-density polyethylene)
- O'rta zichlikdagi chiziqli polietilen (LMDPE-Linear middle-density polyethylene)
- Ko'p qatlamli polietilen (COEX — coextrusion, ingliz tilidan. - "qo'shma ekstruziya")

Ishlatilish maqsadiga qarab quyidagi paket turlarini ajratish mumkin.

Paket turi	Xom-ashyo	Xususiyatlari
Shaffof qadoqlash paketi	HDPE, MDPE, LDPE yoki ularning aralashmalari	Mahsulotlarni saqlash va tashish uchun mo'ljallangan. Himoya funktsiyasini bajaradi (mahsulotni namlik va ifloslanishdan himoya qiladi). Ko'pincha oziq-ovqat do'konlarida ishlatiladi.
"Mayka"-paketlar (ingliz. T-shirt bags)	Asosan HDPE ("shitirlash") yoki maqsadiga qarab, LDPE - dan yoki chiziqli PE ("silliqli")	Ular o'z nomlarini tutqichlarining mavjudligi va tuzilishi tufayli olganlar. Bunday paketlar arzon, keng va bardoshlidir. Ko'pincha supermarketlar va chakana savdo nuqtalarida qo'llaniladi.
Kesilgan tutqichli paketlar	HDPE, LLDPE, LDPE, COEX va laminatlar	Ushbu turdagi paketlarni ishlab chiqarish qiyin hisoblanadi. Tutqichlar mustahkamlangan (Reiter payvandlash (issiq), yopishtiruvchi payvandlash (sovuq)) va mustahkamlanmagan (zichligi 90 mikrongacha bo'lgan kichik paketlar uchun) bo'lishi mumkin.
Halqa tutqichli paketlar	HDPE, LLDPE, LDPE, COEX va laminatlar	Ushbu turdagi paketlarni ishlab chiqarish eng qiyin hisoblanadi. Halqa tutqichi alohida tayyorlanadi va paketga yopishtirish yoki payvandlash orqali birlashtiriladi.
Axlat paketlari (qoplar)	HDPE, LDPE yoki ularning aralashmalari qo'shilgan bo'yoqlar	Shuningdek, tutqichlar bilan ("mayka" paketning analogi) yoki mahkamlash uchun lentalar bilan ishlab chiqariladi.



Polietilen paketlar ko'pincha ularni chiqarishga buyurtma bergan tashkilotning logotipi (masalan: do'kon), biron bir tadbirning ramzi (masalan: bayram, festival va boshqalar) va boshqa tasvirlar bilan ishlab chiqariladi.

O'zining xususiyatlari va mahsulot germetikligini, gigiyenikligini ta'minlash, mahsulotlarning yaroqlilik muddatini uzaytirish va boshqalar tufayli polietilen paketlar ko'plab sohalarda keng tarqalgan va almashtirib bo'lmaydigan materialga aylangan, xususan, oziq-ovqat sanoati, tibbiyot, qurilish sohasida faol qo'llaniladi.

Polietilen paketlar to'laqonli ishlab chiqarish zanjirini yaratish respublika xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Mahalliy ishlab chiqarilgan polietilen paketlar ichki bozorning katta qismini egallashga qodir.

Hozirgi vaqtda respublikada polietilen paketlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va polietilen paketlar importini qisqartirish yo'nalishida bozor tarkibini o'zgartirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Ushbu loyiha faoliyatining uzluksizligi va barqarorligini belgilovchi eng muhim jihatlaridan biri – bu loyihani zarur xom-ashyo bilan uzluksiz ta'minlashdir.

Kesilgan tutqichli paketlarni ishlab chiqarish uchun 2 ta asosiy xom-ashyo turi mavjud:

- oziq-ovqat mahsulotlari uchun granulali yuqori bosimli polietilen;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun granulali past bosimli polietilen.

Nomlanishi	O'lchov birligi	Narxi	Narxi (ming so'm)	Yillik xarajat (ming so'm)
Polietilen	kg	19,5	36 000	702 000
Jami	X	X	X	702 000

Rangli tasvirlarni tushirish uchun quyidagilar kerak bo'ladi:

- polietilenni bo'yash uchun konsentrat;
- rasm tushirish uchun bo'yoq;
- fotopolymer qolip, shakllarni yaratish uchun MSX-145 qattiq polimeri.





4.3. JIHOZ VA USKUNALAR. ISHLAB CHIQRISH JARAYONI

Polietilen paketlar ishlab chiqarish uskunalar to'plami quyidagi uskunalaridan iborat:

1. Xom-ashyo solinuvchi bunker;
2. Ekstruder;
3. Boshqaruv paneli;
4. Shakl beruvchi uskuna;
5. Tasvir muhrlash uskunasi;
6. Yarim tayyor mahsulotni rulonlash uskunasi;
7. Kesish uskunasi.

Uskunalar tarkibi

Nº	Uskuna nomi	Soni (dona)
1	Xom-ashyo solinuvchi bunker	1
2	Ekstruder	1
3	Boshqaruv paneli	1
4	Shakl beruvchi uskuna	1
5	Tasvir muhrlash uskunasi	1
6	Yarim tayyor mahsulotni rulonlash uskunasi	1
7	Kesish uskunasi	1

Ushbu uskunalar to'plami Xitoy Xalq Respublikasida ishlab chiqariladi.

Polietilen paket ishlab chiqarishni tashkil etish uchun yuqoridagi uskunalar to'plamini maqbul yetkazib beruvchidan



sotib olish maqsadga muvofiq. Hozirgi vaqtda yurtimizda turli xil uskunalarini yetkazib beruvchi va loyiha tashabbuskoriga uskunalarini to'g'ri ishlatishni o'rgatuvchi injiniring tashkilotlari mavjud.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ko'plab plastik paketlardan foydalanilmoqda va har yili ularning bir triliondan ortig'i ishlab chiqarilayotgani ma'lum bo'lib, ular ko'p joylarda va inson faoliyatining har xil sohalarida uchraydi, turli maqsadlarda qo'llaniladi, masalan, maishiy texnikalarni qadoqlashdan tortib, oziq-ovqat mahsulotlarini tashishgacha.

Yaxshi jihozlangan ishlab chiqarish sexi muvaqqiyatli ishlashning kalitidir

Ko'p yillar davomida polietilen paketlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat ko'plab kompaniyalar uchun ajoyib reklama elementi, balki ajoyib qadoqlash materiali ham bo'lib xizmat qiladi.



Polietilen paketlarning sifatiga turli omillar ta'sir qilishi mumkin. Masalan, uskunalar, dastlabki xom-ashyo, ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan sarflash materiallari, mutaxassislarining malakasi.

Keling, paket ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini batafsilroq ko'rib chiqaylik.

Fleksoformani tayyorlash

Buyurtmachi bilan kelishilgan logotip yoki boshqa tasvirning maketi fleksoformaga jo'natiladi. Bunda maxsus yorug'likka sezgir polimer asosida, keyinchalik paketlarni bosib chiqarish uchun ishlatiladigan fleksoforma ishlab chiqariladi.

Fleksoformani bosib chiqarish shakli deb ham atashadi. Ushbu shakl elementlari hisobidan bosib chiqarish paytida bo'yoq polietilen ustiga o'tkaziladi va kerakli tasvir izini yaratadi.

Paketlarni bosib chiqarishda buyurtmachi tayyor mahsulotda qancha rangni xohlasa, shuncha fleksoformadan foydalaniladi. Har bir rangga bitta fleksoforma mos keladi. Agar ikki tomonlama paketlarni bosib chiqarish haqida gap ketsa, fleksoformalar soni ikki barobar ko'payadi, chunki rasm paketning ikkala tomoniga ham qo'yiladi. Shunga ko'ra, paketlarni ishlab chiqarish narxi ham qimmatlashadi.

Polietilenni ekstruziya qilish yo'li bilan ishlab chiqarish

Bosib chiqarishda qaysi materialdan foydalanishidan qat'iy nazar - yuqori yoki past bosimli polietilen bo'lsin, barcha xom-ashyo granular shaklida ishlab chiqarishga kiritiladi.

Granulalarni polietilen yoki plyonkaga aylantirish uchun ekstruder (extrusion - chiqarib tashlash) ishlatiladi. Shuning uchun keyingi bosqichning nomi - ekstruziya - qattiq granulalarni

harorat ta'siri ostida polietilen o'ramalariga qayta ishlash jarayoni deyiladi.


Ekstruderda granular birinchi navbatda maxsus teshiklardan o'tadi, buning natijasida ular eriydi. Keyinchalik, eritilgan massadan kerakli qalinlik, o'lcham va rangdagi plyonka hosil bo'ladi. Ushbu plyonka qattiqlashadi va rulonlarga o'raladi.


Shuni ham ta'kidlash kerakki, ekstruziya jarayonida shaffof polietilen granular qo'llaniladi. Chiqishda kerakli rangdagi paketni olish uchun ekstruderda granular shaklida kerakli rangdagi bo'yoq - super konsentrat qo'shiladi.

Sifatli, bir tekis bo'yalgan bo'yoq bilan mustahkam paketlarni olish uchun sifatli polietilen granular va aniq ekstruziya uskunalaridan foydalanish juda muhimdir.

Paketlarga rasm chizish

Ushbu bosqichda kerakli tasvir yoki logotip ekstruziya natijasida olingan plyonkali o'ramalarga qo'yiladi. Paketlarga bosib





chiqarish uchun maxsus bosma mashinalar - fleksomashinalar ishlatiladi.

Fleks mashinalarida maxsus boshqaruv paneli mavjud bo'lib, unda bo'lajak mahsulotning o'lchamlari va rasmlar orasidagi oraliqlar belgilanadi. Birinchi bosqichda olingan bosma shakllar bosma vallarga o'rnatiladi va oldindan tayyorlangan bo'yoq beriladi. Yuqorida ko'rsatilganidek, kerakli miqdordagi ranglarga qarab ma'lum miqdordagi klishe'lardan foydalaniladi.

Пакетlarni kesish

Bosib chiqarilgandan so'ng, tayyor tasvirli plyonka rulonga o'raladi va so'nggi bosqichga - kesishga yo'naltiriladi.

Ushbu bosqichda mahsulotning har xil turlari ishlab chiqariladi. Bu jarayonda kesish, payvandlash, yopishtirish yoki tutqichlarni mustahkamlash, yig'ish va paketlarni shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi.

Zamonaviy kesish uskunalari avtomatlashtirilgan bo'lib, ular maxsus skanerga, tikish va kesishlarni aniqlash va tayyor mahsulotni hisoblash imkonini beradi.

Ekstruziya

Polietilen paketni tayyorlash - ikkita asosiy ishlab chiqarish bosqichidan iborat texnologik jarayon.

Birinchi bosqich polimer plyonka ishlab chiqarish bo'lib, u ekstruziya deb ataladi va ko'pincha ushbu texnologiyaning ikki yo'nalishi haqida gapirish odatiy holdir: quyma plyonkali ekstruziya va puflangan plyonkali ekstruziya.

Quyma plyonkalar oziq-ovqat va to'qimachilik mahsulotlarini qadoqlash, gullarni o'rash, boshqa materiallarni laminatsiyalash va boshqalar uchun ishlatiladi. Odatda, quyma plyonka jarayoni koekstruziya operatsiyasini o'z ichiga oladi, bu ko'p qatlamli plyonka hosil qilish uchun bir xil qolipdan ikki yoki undan ortiq materiallarni bir vaqtning o'zida siqib chiqarishdir. Buning sababi, ko'p hollarda plastik plyonkaning oxirgi qo'llanilishi, agar plyonka faqat bitta materialdan yasalgan bo'lsa, erishib bo'lmaydigan kuchni talab qiladi.

Masalan, oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda foydalanish uchun kislorod to'sish qobiliyatiga ega plyonkalardan foydalanish kerak. Qatlamlar soni, ularning individual qalinligi plyonkaning o'ziga xos qo'llanilishiga qarab o'zgarib turadi.

Polietilen paketlarni ishlab chiqarish jarayonida dastlabki material uchun ko'pincha qattiq plyonkani ishlatish zaruriyati



yo'qligi sababli, plyonkani puflash orqali ekstruzsiya qilish eng keng tarqalgan usul bo'lmoqda.

Bunday ishlab chiqarish liniyasida boshlang'ich bosqichda polietilen granularini yuqori haroratga qizdirish uchun mo'ljallangan ekstruder (bir nechta ekstruder) ishlatiladi. Ekstruderga polietilen granulari yuklanadi, material shnek yordamida isitish kamerasiga beriladi. 180-2400oC haroratda materialni doimiy aralashtirishda bir xil massagacha eritish amalga oshiriladi. Material tayyorlanganidan so'ng, u kamera orqali muayyan qalinlikka kalibrlangan teshiklar orqali chiqariladi. Ushbu teshiklar aylana shaklida bo'ladi.

Teshiklar orqali siqib chiqarilgan eritilgan massa paketni tutqichlarni hosil qiladi, u havo bosimi ostida ekstruderning yuqori qismiga ko'tarilib, harakatlanayotganda soviydi. Qurilmaning yuqori qismida hosil bo'lgan plyonka kesiladi va barabanga o'raladi.

Materialning hisoblangan uzunligiga erishilganda plyonka kesib tashlanadi va yangi rulonni o'rash boshlanadi. Ekstruderda ishlash uchun alohida xizmat ko'rsatuvchi xodim kerak. Odatda, uskuna bilan bitta ishchi shug'ullanadi. Uning vazifasiga granularni yetkazib beruvchi bunkerga to'plash va o'rash qurilmasidagi barabanlarni almashtirish kiradi.

Turli xil rangdagi shaffof bo'lmagan plyonkalarni (odatda axlat qoplari uchun plyonkalarni) tayyorlash uchun bunkerga granular bilan birga bo'yoq solinadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi bo'yoq moddalari tarkibi 3% dan oshmaydi, bu materialning mustahkamlik xususiyatlariga ta'sir qilmaydi.


Rasm tushirish

Rasm tushirish fleksografik mashinada elastik bo'yoqlar

yordamida amalga oshiriladi, ular asosiy materialga yuqori darajada yopishishi bilan ajralib turadi. Bo'yoqlar texnik spirt yordamida suyultiriladi va doimiy ravishda uskunaning idishlarida aralashtiriladi.

Dispenser tizimi orqali har bir bo'yoq alohida rulonga beriladi, uni namlaydi. Rolikda plyonkada bitta rangni bosib chiqaradigan bosma plastinka mavjud. Plyonka rolklar tizimi orqali barabanga qayta o'raladi va kerakli naqshni yaratadigan rangli rolklarni aylantiradi.

Ushbu operatsiyalar polietilen paketlarni ishlab chiqarishning tayyorgarlik bosqichlariga tegishli. Kichik ishlab chiqarish bilan tayyor plyonkani sotib olish va agar kerak bo'lsa, uni rasmni tushirish uchun bosib chiqarish markaziga yuborish orqali ushbu operatsiyalarsiz bajarish mumkin. Biroq, bu uskunasiz ishlab chiqarish deyarli har doim foydasiz va paketning narxi boshqa shahardan yetkazib berishni hisobga olsa ham, yirik ishlab chiqaruvchilarnikidan yuqori bo'ladi.





4.4. INFRASTRUKTURA

Ushbu loyihada qurilish montaj ishlari amalga oshirilmaydi. Loyihani amalga oshirish uchun maqbul joydan bino ijaraga olinadi. Ammo jihoz va uskuna binoda joylashishi uchun binoni moslashtirish zarur bo'ladi.


Ushbu loyihani amalga oshirish uchun binolar va joy tanlash alohida e'tibor talab qiladi. Polietilendan mahsulotlar ishlab chiqarish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, paket ishlab chiqarishni tashkil etishni faqat barcha ekologik xavfsizlik talablari bajarilgan taqdirda amalga oshirish mumkin.

Jihoz va uskuna binoda joylashishi uchun binoni o'lchamlari quyidagicha bo'lishi kerak

N ^o		Balandligi, m	Eni, m	Uzunligi, m	Binoning umumiy maydoni, m ²	Binoni xajmi, m ³
1	Asosiy ishlab chiqarish binosi	8	8	25	200	1600
2	Xom-ashyo omborxonasi	8	4	8	32	256
3	Tayyor mahsulotlar omborxonasi	8	4	8	32	256
4	Ma'muriyat uchun	8	4	9	36	288
5	Jami				300	2400

Bundan tashqari polietilen paket ishlab chiqarish sexi aholi punktlaridan uzoqroqda joylashishi, ushbu hudud 380V li elektr energiyasi va suv bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Ishlab chiqarishni tashkil etish binosi to'g'risida ma'lumot





5. MARKETING KONSEPSIYASI



5.1. MARKETING KONSEPSIYASI

Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot yetkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti – o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmuidir.

Taklif tuzilmasidan kelib chiqib, bozorning quyidagi makrosegmentlarini ajratish kerak:

- **iste'mol bozori**
- **sanoat bozori.**

Iste'mol bozori. Bizning ushbu segmentdagi iste'molchilarimiz respublikaning turli yoshdagi, har xil daromad darajasi va oilaviy ahvoli turlicha bulgan barcha aholisidir.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. BMT Aholishunoslik jamg'armasining jahon reytingida respublika 41-o'rinni egallaydi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2024 yil 22 aprel holatiga 37 milliondan ortiq kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlari o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan ko'plab mahalliy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Nomlanishi	Manzili
"GAMMA PLAST" MCHJ	Toshkent sh., Bektemir tumani, Porloq ko'chasi, 53-uy
BEST COLOR XUSUSIY KORXONASI	Toshkent sh., Mirobod tumani, Oq Yo'l ko'chasi, 1-uy
"AZAMAT SARDOR KELAJAGI" XK	Sirdaryo viloyati, Guliston tumani, Mustaqillik ko'chasi, 20-uy
BREND PAKET	Toshkent sh., Chilonzor tumani, 16-daha, 24-uy
DODA PAKET	Toshkent sh., Uchtepa tumani, Taqqachi ko'chasi, 48A
DOMESTIC TRADE COMPANY MChJ	Toshkent sh., Chilonzor tumani, Muqimiy ko'chasi, 14-uy, 3 xonadon
EASY PLAST MChJ	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Do'stlik ko'chasi, 1-uy
EXIM PLAST MChJ	Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani, Hirot ko'chasi, 60-uy
SHAMS A A GROUP MChJ	Toshkent sh., Yashnobod tumani, Jarqurg'on ko'chasi, 49-uy

Ammo bozorda barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarga yetarlicha talab mavjud va keskin raqobat kuzatilmaydi.



O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish mavjud standartlarga mos keladigan zamonaviy, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni talab qiladi.

Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasi hududida polietilen paketlar ishlab chiqarishni tashkil etish orqali O'zbekiston Respublikasining polietilen paket mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan. Ushbu loyihani amalga oshirish mahalliy va jahon bozorida talab yuqori bo'lgan yuqori sifatli polietilen paket mahsulotlarini ishlab chiqarishga imkon beradi.

Loyiha tashabbuskoriga mahsulot sotilishining asosiy rag'batlantiruvchi omillari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- **narx;**
- **sifat.**

Loyihaning marketing strategiyasi ishlab chiqarilayotgan



mahsulot sifatiga, mahsulotning ushbu turiga bo'lgan talabni doimiy ravishda o'rganishga, bozordagi vaziyatga moslashuvchan javob berishga asoslanadi. Shuningdek, loyihaning mablag'larini loyihani kengaytirishga qayta yo'naltirish va shundan kelib chiqib, narxlar siyosati va taktikasining moslashuvchanligiga erishish orqali marketing strategiyasini takomillashtirib borishi kerak.

Ushbu loyiha bo'yicha ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar assortimenti bozorda raqobatchilar tomonidan sotiladigan narxlarning qiyosiy tahlili quyida keltirilgan:

Assortiment nomi	O'lchov birligi	Sotish narxi (so'm)	
		Loyiha tashabbuskorida	Raqobatchilarda
Polietilen paketlar	dona	90	130

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, loyiha bozorda o'rtacha xaridor uchun qulay bo'lgan mahsulot sotish narxining pastligi afzalligiga ega.

Bozorni o'rganish va tadbirkorlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarishni tashkil etishda bozor konyunkturasini doimiy ravishda o'rganish kerak.

Loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirishi zarur:

- Mahsulotlarning asosiy xaridorlari ulgurji savdo-tijorat tashkilotlari ekanligini hisobga olgan holda, raqobatchilarning mahsulot yetkazib berish jadvalarini va mahsulotga bo'lgan talab intensivligini, ushbu bozordagi narxlar holatini diqqat bilan

o'rganish, uni istiqbolda prognoz qilish va mahsulotlarni yetkazib berish va sotish narxlarini oldindan tuzatish zarur;

- Faol maqsadli reklama ishlarini o'tkazish.

Hududlardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, sarflangan mablag'larni qaytarishni tezlashtirish uchun so'nggi paytlarda zamonaviy polietilen paketlar ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilmoqda. Investitsiyalarni qaytishi muddati eski texnologiyalar asosida tashkil etilgan korxonalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada qisqa. Zamonaviy polietilen paketlar ishlab chiqarish uskunalarining energiya tejaydigan turini qo'llashning maqsadga muvofiqligi aniq.

Polietilen paketlar ishlab chiqarish uskunalarining energiya tejaydigan turlari mamlakatimizda hali keng tarqalmagan, ammo so'nggi paytlarda u tobora ommalashib bormoqda. Bu kelgusida mamlakatimiz hududida polietilen paketlar turlarining ko'payishiga olib keladi.

Loyiha tashabbuskori o'zining vazifasi maksimal foyda olish deb bilishi lozim, shu bilan birga mahsulotning narxi iste'molchilar uchun maqbul bo'lishi kerak.

Narxni belgilashning asosiy tamoyili tovarning narxini shunday darajada belgilashdirki, u birinchidan, sotuvchining tovar uchun sarflagan xarajatlarini qoplashi va ikkinchidan, sotuvchi ham, xaridor ham o'zaro foyda (foyda, daromad) olishini ta'minlashi zarur.

Nomlanishi	O'lchov birligi	Maksimal ishlab chiqarishdagi soni	Sotish narxi (ming so'm)	Summasi (ming so'm)
Polietilen paket	dona	20 000 000	0,09	1 800 000



6. ISHLAB CHIQRISH REJASI



6.1. ISHLAB CHIQRISH REJASI

Loyihani samarali amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi:

1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
2. Loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini, moliyaviy hisob-kitoblarini va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
3. Loyiha tashabbuskori tadbikorlik subyekti sifatida tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
4. Ishlab chiqarishni tashkillashtirish uchun maqbul shartlardagi bino izlash;
5. Uskuna va xom-ashyo yetkazib beruvchilar bilan aloqalarni o'rnatish;
6. Kredit tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
7. Loyihani moliyalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish va bankka taqdim etish;
8. Bank tomonidan moliyalashtirishning ochilishi;
9. Ijaraga olingan bino mulkdori bilan shartnoma rasmiylashtirish;
10. Binoga uskunalar to'plamini to'g'ri joylashtirish;
11. Mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
12. Sotishni tashkil qilish.

Loyiha tashabbuskori loyihani amalga oshirishning birinchi yilida 75% dan ishlab chiqarish quvvatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni va loyihani amalga oshirishning 5-yiliga kelib ishlab chiqarish quvvatini kamida 80% gacha yetkazishni rejalashtirishi zarur.



Yillar bo'yicha quvvatlarni o'zlashtirish koeffitsiyenti:

	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil	5 yil
Quvvat o'zlashtirilishi % da	75%	75%	75%	80%	80%

